



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Dilshod Komolov, Asilbek Zulfiqorov YANGI O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	5
2. Faxriddin Yormatov, Nurullo Tursunov JAMIYAT HAYOTIDA NURONIYLARNING TUTGAN O‘RNI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AMALIY IFODASI.....	11
3. Nodira Toliboyeva O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI TA‘LIM TIZIMIGA JALB ETISH: TARIXIY TAJRIBA VA MUAMMOLAR.....	18
4. Гулчехра Дадамирзаева СОВЕТЛАРНИНГ КОСИБ-ХУНАРМАНДЧИЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ.....	23
5. Akmal Mengliboyev QIZIL ARMIYA BOSQINIGA QARSHI SURXON VOHASIDA KURASHNING BOSHLANISHI.....	32
6. Ulug‘bek Mirzaliyev, Farhod Umurzoqov SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDAGI URBANIZASIYA JARAYONLARI.....	39
7. Абдисаттор Қосимов ЧОРВАЧИЛИКДА СУРХОН-ШЕРОБОД ВОҲАСИ АСРИЙ ХЎЖАЛИК АНЪАНАЛАРИ.....	45
8. Sardorbek Rahimberdiyev TRANSMILLIY MIGRATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK MIGRANTLARINING MADANIY IDENTIFIKATSIYASI VA KUNDALIK HAYOT STRATEGIYALARI (KOREYA RESPUBLIKASI MISOLIDA).....	49
9. Shavkat Shapiyev FARHOD GIDRO ELEKTR STANSIYASI – O‘ZBEKISTONNING ENERGETIKA USTUNI.....	57
10. Diyora Chorshanbiyeva 2016-YILDAN KEYIN O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI VA YOSHLAR MASALASI.....	65
11. Sitara Nosirova DOSTONLARDA O‘ZBEK OILASINING IJTIMOIIY HAYOTDAGI KO‘RINISHLARI.....	72
12. Lutfillo Mamasaidov O‘ZBEKISTONDA SAVODSIZLIKNING TUGATILISHI VA YANGI TA‘LIM TIZIMINI TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN.....	76



Nodira Odiljonovna Toliboyeva,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti, PhD

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI TA’LIM TIZIMIGA JALB ETISH: TARIXIY TAJRIBA VA MUAMMOLAR

For citation: Nodira Toliboeva. INVOLVEMENT OF WOMEN IN THE EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN: HISTORICAL EXPERIENCE AND PROBLEMS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18941929>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1950-yillar oxirida Namangan viloyatida aholi o‘rtasida savodsizlik va chala savodlilikni tugatish jarayonining borishi Namangan viloyati davlat arxivi fondlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1958-yilgi rasmiy bildirishnomalar va hisobotlar asosida statistika idoralari hamda xalq maorifi bo‘limlari o‘rtasidagi raqamli tafovutlar, shuningdek, kampaniyaning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Muallif arxiv hujjatlariga tayanib, ko‘plab savodli mutaxassislarining statistik hisobotlarda “savodsiz” deb noto‘g‘ri qayd etilishi sabablarini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Arxiv hujjatlari, Namangan, savodsizlikni tugatish, xalq maorifi, statistika, 1958-yil, likbez, ijtimoiy tarix, chala savodlilik.

Нодира Одилжоновна Толибоева,
доцент кафедры истории Узбекистана,
Узбекский государственный университет
мировых языков, кандидат наук

ВОВЛЕЧЕНИЕ ЖЕНЩИН В СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ И ПРОБЛЕМЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе фондов Государственного архива Наманганской области анализируется процесс ликвидации неграмотности и малограмотности среди населения в конце 1950-х годов. В исследовании на основе официальных докладных записок и отчетов 1958 года выявлены статистические расхождения между органами статистики и отделами народного образования, а также раскрыты специфические особенности кампании. Автор, опираясь на архивные документы, научно обосновывает причины ошибочного учета многих грамотных специалистов как «неграмотных» в статистических отчетах.

Ключевые слова: Наманган, архивные документы, ликвидация неграмотности, народное образование, статистика, 1958 год, ликбез, социальная история, малограмотность.

Nodira Odiljonovna Toliboeva,
Associate Professor, Department of History of Uzbekistan,
Uzbek State University of World Languages, PhD

INVOLVEMENT OF WOMEN IN THE EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN: HISTORICAL EXPERIENCE AND PROBLEMS

ABSTRACT

This article analyzes the process of eliminating illiteracy and semi-literacy among the population in the Namangan region in the late 1950s, based on the collections of the State Archive of the Namangan region. Based on official memorandums and reports from 1958, the study reveals statistical discrepancies between statistical agencies and public education departments and examines the specific characteristics of the campaign. Drawing on archival documents, the author scientifically substantiates the reasons for the erroneous recording of many literate specialists as “illiterate” in statistical reports.

Index Terms: Namangan, archival documents, elimination of illiteracy, public education, statistics, 1958, likbez, social history, semi-literacy.

1. Dolzarbligi:

XX asr dunyo tarixida ta'lim va ma'rifat nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki davlatlararo raqobat, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va mafkuraviy gegemonlikning hal qiluvchi omiliga aylandi. Bugungi kunda kundalik hayotda xotin-qizlarning ta'lim olish huquqini, iqtisodiy iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotdagi faolligini belgilash siyosatining barqaror yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu qaror qabul qilingan farmon va qarorlar, xavfsizlik, xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlash hamda sud oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimidagi ishtirokini talablarga javob me'yoriy-huquqiy hujjatlar tarixiy tajribani qayta ko'rib chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Ayollari o'qimishli va kasb-hunarli bo'lgan yurtida tinchlik va taraqqiyot bo'ladi. Ayollari ma'rifatli bo'lgan xalq albatta baxtli bo'ladi” [1]. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollarning ta'lim tizimidagi faolligi ijtimoiy o'sish, iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy yuksalishning muhim hayotidan biri hisoblanadi.

Shu nazardan, sovet tuzumi jarayonida O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim tizimidagi ishtiroki, ushbu jarayonda mavjud bo'lgan tizimli muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llarini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish ishlari ilmiy jihatdan namoyon bo'ladi. Bu masalani sabab-natija bog'liqligida, davr mafkurasi va real ijtimoiy jarayonlarning o'ziga xos nisbatni o'rganishda O'zbekiston tarixi fanida nazariy va amaliy ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Sovet ittifoqi o'zining dastlabki yillaridan boshlab, “savodsizlikni tugatish” (likbez) kampaniyasini shunchaki talimiy aksiya emas, balki “yangi odam” (homo sovieticus)ni shakllantirishning va mavjud ijtimoiy tuzumni tubdan o'zgartirishning eng qudratli mexanizmi sifatida ko'rdi. Bu jarayon Turkiston, xususan, O'zbekiston hududida o'ziga xos murakkabliklar va ijtimoiy qarshiliklar bilan kechdi.

Ushbu tadqiqotning markazida “xotin-qizlar masalasi” va ularning savodxonlik darajasini oshirish muammosi yotadi. Sovet ma'muriyati uchun ayollarning savodsizligini tugatish – bu ularni patriarxal oila muhitidan chiqarib, jamoat hayotiga, ishlab chiqarishga va siyosiy jarayonlarga jalb qilishning yagona yo'li edi. Savodli ayol – bu targ'ibotni tushunadigan, kommunistik mafkurani oila doirasida tarqata oladigan va iqtisodiyotning turli sohalarida mehnat resursi sifatida foydalanish mumkin bo'lgan subyekt edi.

Namangan viloyati mazkur tarixiy jarayonlarni o'rganish uchun klassik model hisoblanadi. Namangan o'zining uzoq yillik hunarmandchilik an'analari, savdo-sotiq markazligi va an'anaviy islomiy qadriyatlarning mustahkamligi bilan boshqa hududlardan ajralib turgan. Aynan shu omillar xotin-qizlarning ta'lim olishiga nisbatan jamiyatning ichki qarshiligini kuchaytirgan va davlatning ma'muriy buyruqlari bilan mahalliy mentalitet o'rtasidagi to'qnashuvlarni yorqin namoyon etgan.

Ma'lumki, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Sovet ittifoqi ijtimoiy siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining bilim darajasini oshirish va savodsizlikni butunlay tugatish

masalasi bo‘lib qoldi. 1950-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, bu jarayon nafaqat maorif tizimining vazifasi, balki davlatning mafkuraviy va iqtisodiy barqarorligini ta‘minlovchi strategik maqsad sifatida talqin etildi. Xususan, O‘zbekiston SSRda aholining savodxonlik darajasini 100 foizga yetkazish bo‘yicha “Likbez” (savodsizlikni tugatish) guruhlarini faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi.

Ushbu jarayonning hududiy xususiyatlarini o‘rganishda Namangan viloyati davlat arxivi materiallari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. 1958-yilga oid arxiv hujjatlari, xususan, Namangan shahar xalq maorifi bo‘limi (GORONO) tomonidan tayyorlangan bildirishnomalar va hisobotlar o‘sha davrdagi ta‘lim islohotlarining real mazzasini ochib beradi. Arxiv ma‘lumotlariga ko‘ra, 1957-yil dekabr oyidan boshlab maktab o‘qituvchilari va mahalla qo‘mitalari ishtirokida aholini keng ko‘lamli xatlovdan o‘tkazish ishlari boshlangan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, 1958-yilning mart oyiga kelib, shahar aholisi orasida savodsizlikni tugatish bo‘yicha olingan statistik ma‘lumotlar va amaldagi holat o‘rtasida jiddiy tafovutlar yuzaga kelgani ma‘lum bo‘ladi. Bir tomondan, davlat rejasini bajarish maqsadida tashkil etilgan o‘quv guruhlarini soni ortib borgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, statistika idoralari tomonidan hisobga olish tizimidagi metodologik xatolar tufayli ma‘lumotli shaxslarning ham “savodsiz”lar ro‘yxatiga tushib qolishi kuzatilgan.

2. Metodlar:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ob‘yektivlik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, statistik tadqiqot, materiallarni tanlash va tasniflash tamoyillari asosida yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Sovet hokimiyati 1920-yillarning boshlaridan xotin-qizlar masalasini ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya jarayonining muhim qismi sifatida ko‘ra boshladi. Ayollarni “Ayollarning ozodligini ta‘minlash” va ularning jamiyatning faol ishtirokchisiga yordam g‘oyasi, avvalo, ularning xalq maorifi tizimiga keng jalb etish bilan bog‘liq holda talqin etadi. Shu bilan birga, birgalikda, xotin-qizlar bilan pedagogik kadrlar tayyorlash orqali ta‘lim xotin-qizlar bilan ta‘minlangan va shu yo‘l bilan ijtimoiy tayanch qatlamini ushlab turish bilan xavfsizlik mumkin deb topildi. Ya‘ni, ishlab chiqarish savodsizlikka barham berish kampaniyasi xotin-qizlar muammosi bilan uzviy bog‘lab qo‘yildi. Kommunistik partiya dasturlarida ayollar savodxonligini tekshirishga alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan, uni keng ijtimoiy o‘zgarishlarning zaruriy sharti sifatida talqin qilingan.

Bunday e‘tibor demografik bilan ham izohlanadi. Vaholanki, 1926-yilgi aholi ro‘yxati ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi soni 47 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1939-yilda bu ko‘rsatkich 48,4 foizga yetgan [2]. Demak, balki aholining yarmi ayollardan iborat bo‘lgan sharoitda dasturiy ta‘lim tizimidan chetda qolishi milliy ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy va madaniy rivojlanishning ham sekinlashuviga olib kelishi mumkin edi.

Shu bois, 1920–1930-yillarda amalga oshirilgan savodsizlikni qurish strategiyasi va xotin-qizlarni ta‘lim jarayoniga jalb etish yo‘lini bir tomondan ijtimoiy modernizatsiya sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, u sovet mafkuraviy jamiyatga chuqur kirib borish mexanizmlaridan biri sifatida ham xizmat qildi.

Ikkinchi jahon urushi arasida ta‘lim siyosatida yangi tartiblar muhokama qilina boshlandi. 1941-yilga kelib respublika maorif organlarida o‘g‘il va qiz bolalarni alohida o‘qitish masalasi ko‘rib chiqiladi [3]. SSSR Xalq Komissarlari Kengashining 1943-yildagi qaroriga ko‘ra, 1943–1944-o‘quv yilidan Sovet Ittifoqining yirik shaharlaridagi o‘rta maktablarda o‘g‘il va qizlar uchun alohida ta‘lim tizimi joriy etilgan. Ushbu qaror ta‘lim jarayonini tashkil etishda gender ishlab chiqarishning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin.

Umuman olganda, qizlarning ta‘lim tizimidagi ishtiroki son asta-sekin o‘sib bo‘lsa-da, bu jarayon ijtimoiy-madaniy, milliy tarkib va ma‘muriy qarorlar ta‘sirida murakkab va ziddiyatli tarzda kechgan.

Arxiv hujjatlariga ko‘ra, 1950-yillar o‘rtalarida qizlar ta‘limi tizimida jiddiy muammolar yuzaga kelgan. Jumladan, 1956-yilning yanvaridan 1957-yilning yanvarigacha bo‘lgan bir yil

davomida 5 390 nafar o'zbek qizi maktabni tark etgan [4]. Bu ko'rsatkich holat shunchaki tasodifiy emas, balki xavotirli ijtimoiy tendensiyaga aylanib ulguridan dalolat beradi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Andijon viloyati da – 1 622 nafarni tashkil etgan. Undan keyingi o'rinlarda Xorazm viloyati (1 067 nafar) va Buxoro viloyati (1 006 nafar) qayd etiladi. Samarqand viloyati da 607 nafar, Toshkent viloyati ham esa 499 nafar qizning maktabni tashlab ketgani aniqlangan [5]. Raqamlar o'rtasida tafovut odamni ko'rsatsa-da, muammo respublika miqyosida umumiy xarakter kasb etganini tasdiqlaydi.

Bu holat, ayniqsa, yuqori sinflarda va qishloq maktablarida yaqqol namoyon bo'lgan. Bu esa bir necha usul bilan izohlanishi mumkin:

- qishloq qizlarning erta mehnatga jalb etilishi;
- an'anaviy ijtimoiy qarashlar va erta turmush omili;
- oilaning iqtisodiy sharoiti tufayli o'g'il bolalar ta'limiga barqarorlik darajasi;
- yuqori sinflarda o'qishni davom ettirish uchun infratuzilmaning yetarlicha emasligi.

Katta, yuqori sinflarda ta'lim olayotgan o'zbek qizlari soni o'g'il bolalar sonidan yuqori darajada ortda qolgan. Bu esa 1930-yillarda joriy etilgan tarzda ta'lim siyosatiga qaramay, gender nomutanosiblik to'liq bartaraf etmaganini ko'rsatadi. Shunday qilib, 1950-yillar o'rtalari maktabdagi yetishtirish ko'rsatkichlari sovet orqali qizlarni ta'lim tizimiga jalb qilish orqali erishilgan natijalar bilan bir qatorda, qolgan ijtimoiy-siqlar va iqtisodiy faoliyatdan ham mavjud bo'lganini dalillaydi. Bu esa muammoni faqat ma'muriyat bilan emas, balki kompleks ijtimoiy asosda hal etish zarurligini ko'rsatadi. 1958-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, Namangan shahrida o'tkazilgan hisob-kitoblar sovet davri ta'lim siyosatining o'sha davrdagi real manzarasini va uning amalga oshirilish mexanizmlarini yoritib beradi. Namangan shahar xalq maorifi bo'limining mazkur hujjatlari shaharda savodsizlik va chala savodlilik muammosi qanchalik dolzarb bo'lganini ko'rsatadi. Umumiy hisobotlarga ko'ra, shaharda jami 1345 nafar kishi savodsiz va chala savodli deb qayd etilgan bo'lib, ularning mutlaq aksariyati – 954 nafari ayollardan iborat edi [6]. Bu raqamlar savodxonlik kampaniyasi aynan xotin-qizlar qatlamiga qaratilgani va ularning ta'lim tizimiga jalb etilishi eng katta muammo bo'lganidan dalolat beradi.

Biroq, boshqa hududlarda vaziyat butunlay boshqacha ko'rinish olgan. Masalan, 9-sonli va 12-sonli to'liqsiz o'rta maktablar kesimida ShSB (shahar statistika boshqarmasi) ma'lumotlari bilan joylardagi haqiqiy holat o'rtasida katta farqlar qayd etilgan. 12-sonli maktab ro'yxatida 46 nafar kishi "savodsiz" deb keltirilgan bo'lsa-da, o'qituvchilar va mahalla faollari tomonidan qayta tekshirilganda, ularning 27 nafari aslida savodli ekanligi ma'lum bo'lgan. Mazkur ro'yxatga hatto pedagogika bilim yurtining 1-kurs talabasi Alixanova Amina yoki "Oblastroy" trestida prorab lavozimida ishlaydigan mutaxassis Kutpitdinov Yaqub kabi shaxslarning ham "savodsiz"lar qatorida kiritilgani [7], markazlashgan statistika tizimidagi byurokratik kamchiliklar va ma'lumotlarning eskirganligini yaqqol ko'rsatadi. Ushbu jarayonlarning tashkiliy jihatlari tahlil qilinganda, markaziy hisobotlar bilan joylardagi amaliyot o'rtasida jiddiy nomuvofiqliklar ko'zga tashlanadi. Uychi-Qo'rg'on tumani misolida bu holat ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Tuman maorif bo'limi (mudiri Qanbaraliyev) rasmiy hisobotlarida 561 nafar savodsizning barchasi o'qish bilan to'liq qamrab olinganligi haqida ma'lumot bergan bo'lsa-da, joylardagi tekshiruvlar buning aksini ko'rsatdi. Masalan, 20-sonli to'liqsiz o'rta maktabda (direktor Anarov) darslar uchun zarur bo'lgan jurnal va qaydnomalar mavjud emasligi, o'qituvchi Abidovga biriktirilgan guruhda esa amalda mashg'ulotlar o'tkazilmayotgani aniqlandi. Bunday "qog'ozdagi taraqqiyot" mahalliy rahbarlar, xususan, Qishloq kengashi raisi Ataboyev va kolxoz rahbarlarining ta'lim jarayoniga loqayd munosabati fonida yuz bergan [8].

Namangan shahar markazida esa 1958-yil fevral holatiga ko'ra ta'limni tashkil etish uchun nisbatan keng ko'lamlil choralar ko'rilgan. Shahar bo'yicha 214 nafar o'qituvchi safarbar etilib, ularga 750 nusxa "Alifbe" va shuncha miqdordagi arifmetika darsliklari taqsimlangan. O'qitish tizimi guruhli (15 ta guruh savodsizlar, 16 ta guruh chala savodlilar uchun) va individual shakllarda yo'lga qo'yilgan [9]. Biroq, bu resurslar taqsimoti ham barcha maktablarda birdek samarali natija bermadi.

Maktablar kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyat ko'pincha maktab rahbarining shaxsiy mas'uliyatiga bog'liq bo'lgan. Masalan, 2-sonli yetti yillik maktab (direktor Axmedov), 16-sonli o'rta maktab (direktor Davidov) va 33-sonli boshlang'ich maktab (mudira Xodmirzayeva) kabi joylarda o'qituvchilar (Lukinova Z., Yakubova F., Mustafina Z.) tomonidan muntazam mashg'ulotlar o'tkazilib, samarali natijalarga erishilgan. Biroq, 14-sonli boshlang'ich maktabda (mudir Qodirov) vaziyat butunlay qoniqarsiz bo'lib, ro'yxatga olingan 58 nafar fuqarodan atigi 19 nafari darslarga jalb etilgan, qolganlari esa nazoratsiz qolgan [10]. Bu holat shahar xalq maorifi bo'limi inspektorlari tomonidan mudirning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatsizligi va mahalla faollari bilan hamkorlik qilmaganligi sifatida baholangan. Ushbu holatlar shundan dalolat beradiki, savodxonlikni tugatish kampaniyasi ko'pincha real hayotiy ehtiyojdan ko'ra, "rejani bajarish" va raqamlarni sun'iy ravishda "to'ldirish" kabi ma'muriy bosim ostida kechgan. Arxiv hujjatlaridagi bunday nomuvofiqliklar, ta'lim tizimi xodimlarining o'z hududlaridagi aholini qayta tekshiruvdan o'tkazish va savodsizlar uchun qo'shimcha guruhlar tashkil etish borasidagi tinimsiz sa'y-harakatlarini ham fosh etadi. Natijada, arxiv ma'lumotlari nafaqat savodxonlik darajasini, balki sovet davridagi statistik hisobotlarning ishonchlilik darajasini ham tanqidiy o'rganishimizga imkon yaratadi.

4. Xulosalar

Arxiv hujjatlaridagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 1950-yillarda savodxonlik kampaniyasi murakkab byurokratik jarayon bo'lgan. Bir tomondan, davlat resurslar va kadrlar bilan ta'minlashga uringan bo'lsa, ikkinchi tomondan, joylardagi "rejani bajarish" uchun qilingan soxta hisobotlar va mahalliy rahbarlarning sustkashligi ta'lim sifatiga jiddiy putur yetkazgan.

Ayniqsa, qizlarning maktabdan ketishi nafaqat ta'lim statistikasidagi bir raqam, balki XX asr o'rtalarida O'zbekiston jamiyatida kechgan chuqur ijtimoiy-madaniy to'qnashuvning yorqin va achchiq ifodasidir. Bu jarayon o'sha davr sovet maorif tizimi targ'ib qilgan yangiliklar bilan mahalliy aholining asriy an'analari, turmush tarzi va mentaliteti o'rtasidagi nomutanosiblikni yaqqol namoyon etadi. O'sha davrda qizlar ta'limi shunchaki maktabdagi dars jarayoni emas, balki ayolning jamiyatdagi o'rni haqidagi qarashlar bilan bog'liq bo'lgan katta ijtimoiy kurash maydoni edi. Ko'plab o'zbek oilalarida qiz bolaning ta'lim olishi oila sha'ni, erta turmushga berish amaliyoti yoki uy xo'jaligidagi ehtiyojlar kabi ustuvorliklar oldida ikkinchi darajali masala deb qaralgan. Natijada, ushbu besh mingdan ortiq qizning ta'limdan uzilib qolishi tasodifiy holat emas, balki ta'lim tizimining aholi mentalitetini inobatga olmagan holda, ma'muriy bosimlar orqali joriy etilganligining yaqqol oqibati edi. Bu holat o'sha davrda ta'limdagi "tizimlilik" va'dalari aslida ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi chuqur ziddiyatlar bilan to'qnash kelib, qizlar kelajagi uchun jiddiy yo'qotishlarga sabab bo'lganini ko'rsatadi. Bu tarixiy xulosa shundan dalolat beradiki, har qanday ta'lim islohoti jamiyatning madaniy poydevori va ijtimoiy holati bilan uyg'unlashmasa, u qog'ozda qolib ketishga yoki aks natijalar berishga mahkumdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Асонов Г.Р. Аҳоли географияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978. – Б.72.
2. Elektron resurs: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 07.03.2025. <https://president.uz>.
3. O'z MA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 4042-ish, 4-varaq.
4. O'z MA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 4706-ish, 66-varaq.
5. Mardiyeva G. Samarqand viloyati ta'lim tizimida xotin-qizlarning ishtiroki: muammo va yechimlar (1925-1991 yy). – Samarqand, 2025. – B.17.
6. Namangan viloyati arxivi. F-12-fond, 89-yig'majild, 9-varaq.
7. Namangan viloyati arxivi. F-12-fond, 89-yig'majild, 12-varaq.
8. Namangan viloyati arxivi. F-12-fond, 89-yig'majild, 3-varaq.
9. Namangan viloyati arxivi. F-12-fond, 89-yig'majild, 19-varaq.
10. Namangan viloyati arxivi. F-12-fond, 89-yig'majild, 20-varaq.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000